
NAVBATDAGI SESSIYA BO'LIB O'TDI

Tuman hokimligining majlislar zalida Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining oltinchi chaqiriq yigirma beshinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimining o'rinbosarlari, siyosiy partiyalar rahbarlari, tashkilotlar rahbarlari va ommaviy axborot vositalari ishtirok etgan sessiyani tuman hokimi I.Novikov olib bordi.



Sessiya kun tartibidagi dastlabki masala “Tumanda sogʻlom ovqatlanishni tashkil etish va aholiga sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ahvoli” yuzasidan tuman Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi bosh vrachi I.Madumarovning axboroti tinglandi.



Shuningdek, Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudi raisi A.Akbarov va Fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudi raisi J.Rasulovlar 2020 yil 9 oyi mobaynida odil sudlovni amalga oshirish borasida, Qo'shtepa tumani bo'yicha olib borilgan faoliyalari yuzasidan axborot berdilar.



Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qo'shtepa tumanidagi Xalq qabulxonasi tomonidan fuqarolar murojaatlari bilan ishlash bo'yicha joriy yilning 9 oyi mobaynida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Xalq qabulxonasi mudiri R.Abdullayevning axboroti ham tinglandi.



Sessiya davomida kun tartibidagi boshqa masalalar ham muhokama etilib, ushbu masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-11-02 15:40:28